

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Namangan muhandislik-qurilish  
instituti rektori**

**Sh.Ergashev**

**2024-yil**



**05.02.01 - Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik.  
Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli  
va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va  
radioaktiv elementlar texnologiyasi ixtisosligi bo‘yicha  
tayanch doktoranturaga kirish uchun mutaxassislik  
fanlaridan imtixon**

**DASTURI**

**Namangan-2024**

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish institutining “Mexanika muhandisligi” kafedrasida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

1. M. Ubaydullayev – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Mexanika muhandisligi” kafedraasi mudiri, t.f.b.f.d (PhD)., dots.
2. Sh. Kenjaboyev – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedraasi professori, t.f.d., prof.
3. A.Botirov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Mexanika muhandisligi” kafedraasi dotsenti t.f.n., dots.
4. N. Saidmaxamadov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Mexanika muhandisligi” kafedraasi dotsenti t.f.n., dots.

Taqrizchilar:

1. N.J. Turaxodjayev – Toshkent davlat texnika universiteti “Quymakorlik texnologiyalari” kafedraasi mudiri, t.f.d., prof.
2. Sh.N. Fayzimatov – Farg’ona politexnika itstituti professori, t.f.d., prof.

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya etilgan.



**05.02.01 - Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun mutaxassislik fanlaridan imtixon**

**DASTURI**

Dastur quyidagi universitet fanlariga asoslanadi:

1. Materialshunoslik. Metallarga termik ishlov berish nazariyasi va texnologiyasi;
2. Quymakorlik texnologiyasi;
3. Umumiy metallurgiya;
4. Metallarga bosim bilan ishlov berish.

**FAN: MATERIALSHUNOSLIK. METALLARGA TERMIK ISHLOV BERISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIYASI**

**Fanni maqsadi vazifalari va manbalari.**

Fanni maqsadi, barcha sanoat sohalari va mashinasozlikda qo'llaniladigan va qo'llanilishi rejalashtirilgan metall va nometall materiallarning turlari, tuzilishi, strukturasi, xossasi, markalanishi va ularga termik, kimyoviy – termik va boshqa ishlov berish usullari hamda zagotovkalarga ishlov beradigan va detal tayyorlash uchun kerak bo'ladigan materiallarni iqtisod qiladigan, zagotovka va detallar tayyorlashda qo'llaniladigan eng yaxshi texnologik usullarini tanlash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish, materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi fanining asosiy tushunchalari va ma'lumotlarni o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi, metall va nometall materiallarning ichki tuzilishi, strukturasi, xossasi, ishlatilishi va markalanishi hamda bu kattaliklarni o'zaro aloqasini hamda ularni turli ta'sirlar natijasida o'zgarish qonuniyatlari bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni hosil qilish;

- zagotovka va mashina detallarini tayyorlash va ularga ishlov berishning texnologik usullarini, ularning texnika-iqtisodiy tavsifi hamda qo'llanish sohalarini o'rgatish;

- materiallardan zagotovka va detallar tayyorlash usullari, tayyorlanish usullarini e'tiborga olib, ishlov berish uchun qulay bo'lgan materiallarni tanlash yo'llarini o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni hosil qilishdan iborat.

**Materialshunoslikning nazariy asoslari**

**Kristallarning tuzilishi va xossalari.** Elementlarning davriy qonuni va atomlarning elektron tuzilishi. Atomlararo bog'lanish turlari. Geteropolyar (ionli),

gomopolyar (kovalent), metall va molekulyar bog‘lanishlar. Qattiq jismlarning kristall tuzilishi. Kristallarning va kristall tuzilishlarining simmetrik elementlari. Atom va ion radiuslari. Koordinatsion raqamlar. Kristallardagi fazaviy panjaralarning asosiy turlari va ularning xarakteristikalari. Polimorfizm. Kristallarning fizik xossalari anizotropiyasi. Tekisliklarning kristallografik indekslari va kristall panjaradagi yo‘nalishlar (Miller indekslari).

**Kristal tuzilishidagi nuqsonlar.** Nuqtaviy nuqsonlar. Vakansiyalar va tugunlararo atomlar. Nuqtaviy nuqsonlarining muvozanat konsentratsiyasi. Vakansiya va divakansiyalarning shakllanishi hamda ko‘chishi. “Vakansiya - nuqsonviy atom” jamlanmalari. Toblashda va yumshatishda vakansiyalarning harakatlari. Dislokatsiyalar. Byurgers dislokatsiya vektori. Chiziqli, vintsimin va aralash dislokatsiyalar. Dislokatsiya zichligi. Dislokatsiyalarning o‘zaro elastik ta’siri. Dislokatsiyalarning shakllanishi va ko‘payishi, Frank-Rid manbasi. Dislokatsiyalar bilan nuqsonli atomlarining o‘zaro ta’siri. Kotrell, Snuk va Suzukilarning qarashlari. Dislokatsiyalarning harakati. Donacha va subdonachalarning chegaralari. Kichik burchakli va yuqori burchakli chegaralar. Chegaralarning ko‘chishi va donacha chegarasining siljishi. Donacha va bloklarning o‘lchamlari. Nanokristal materiallarning tuzilishi va o‘lchamlari.

**Qattiq jismlarning elektron nazariyasi asoslari.** Atomlararo bog‘lanishning elektron nazariyasi. Metallarning kollektivlangan elektronlari, issiqlik o‘tkazuvchanligi, elektr o‘tkazuvchanligi va elektron issiqlik sig‘imi. Termoelektron emissiya. Chiqish ishlari. Yuqorio‘tkazuvchanlik. Qattiq jismlarning yarimo‘tkazgich va dielektrik xossalari. Yarimo‘tkazgichlarning ichki va nuqsonli o‘tkazuvchanligi. Xol effekti. Materiallarning magnit xossalari. Magnitlanishni tasniflanishi. Diamagnetizm, paramagnetizm, ferromagnetizm. Magnetoelastik energiya. Magnitostriksiya. Majburiy kuch va qoldiq induksiya. Metall va keramik magnitlar.

**Metallarning molekulyar-kinetik nazariyasi asoslari.** Metallardagi atomlarning issiqlik harakati. Panjara tebranishlari, issiqlik sig‘imi va issiqlik kengayishi, uni metallarning kristall tuzilishi va xossalari bilan bog‘liqligi. Issiqlik o‘tkazuvchanlikning foton va elektron nazariyasi. Qattiq jismning diffuziyalanishi. Diffuziya mexanizmlari. Diffuziya parametrlarining haroratga bog‘liqligi. O‘z-o‘zini diffuziyalash va geterodiffuziya. Anizotrop diffuziya. Donachalar chegarasi va sirtlarning diffuziyalanishi.

**Kristallanish.** Kristallanish jarayonining termodinamikasi. Qattiq faza yadrolarining shakllanishi va o‘shishi. Kristallanish kinetikasi. Kristallanish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar. Donachalar hajmi. Suyuq metallning modifikatsiyasi. Kristal shakli va tuzilishi. Monkristallarni shakllantirish. Ikkilamchi kristallanish. Metall qotishmalarining tuzilishi. Qotishmalar termodinamikasining asoslari. Faza va struktura tizimlarini aniqlash. Qattiq eritmalar, kimyoviy birikmalar, mexanik aralashmalar. Oraliq bog‘lanishlar. Elektron bog‘lanishlar, fazalarni shakllantirish, Laves fazalari. Kristallanish jarayonida qotishmalar strukturasi shakllanishi.

Holat diagrammalari. Kristallanish jarayoni. Cheksiz qattiq eritmalar hosil qiluvchi qotishmalarning holat diagrammalari. Kimyoviy birikmalar hosil qiluvchi qotishmalarning holat diagrammalari. Qattiq holatda qotishmalarda fazaviy o'zgarishlarning xususiyatlari. Haroratning pasayishi bilan qattiq eritmaning qisman parchalanishidagi qotishmalarning holat diagrammalari. Polimorf o'zgarishlarga uchragan qotishmalarning holat diagrammalari. Qotishmalarning tuzilishi va xossalari holat diagrammasi. Uchlamchi qotishmalarning fazaviy diagrammalari haqida tushunchalar.

**Plastik deformatsiya va mexanik xususiyatlar.** Kuchlanish turlari. Elastik va plastik deformatsiyalar. Nazariy va haqiqiy mustahkamlik. Plastik deformatsiya vaqtida dislokatsiyalar harakati. Dislokatsiyalarning ko'payishi. Deformatsiya mustahkamligi. Dislokatsiyalarning strukturaviy elementlar bilan o'zaro ta'siri. Plastik deformatsiya jarayonida polikristalli metall strukturasi o'zgarishi. Deformatsiya tuzilishi. Puxtalanish. Oquvchanlik chegarasi va dislokatsiya zichligi o'rtasidagi bog'liqlik. Qattiq eritmaning mustahkamlanishi, qotishma tarkibidagi diskret zarrachalar tufayli mustahkamlanish. Nb, V, Ti, Al, N ning po'latga kiritilishi tufayli kam legirlangan po'latlarning dispersli mustahkamlanishi. Po'lat donachasini maydalanishi tufayli mustahkamlashi. Oquvchanlik chegarasining po'lat konstruktsiyadagi parametrlarga umumiy bog'liqligi. Statik kuchlanishlar ostida aniqlanadigan mexanik xususiyatlar. Cho'zilishdagi mustahkamlikka sinash. Metallarning qattiqligi. Dinamik yuk ostida sinovlar. Zarbiy qovushqoqlik. O'zgaruvchan yuklar ostidagi mustahkamlik. Metallarning konstruktiv mustahkamligi. Sovuq holdagi mo'rtlik chegarasi. Yoriqlarning kelib chiqishi va rivojlanishi. Qovushqoqlikning mustahkamligini aniqlash. Yashovchanlik (siklik yuklar ostida yorilishga qarshilik). Abraziv yeyilish.

**Temir-uglerod qotishmalari.** Uglerodli asbobsozlik oddiy sifatli po'lat va oq, kulrang, bolg'alanuvchan, yuqori mustahkam bo'lgan sifatli cho'yanlar. Temir-uglerod diagrammasiga legirlangan elementlarning ta'siri. Legirlangan po'latlardagi fazalar, po'latning asosiy fazalarida legirlangan elementlarning taqsimlanishi. Legirlangan po'latlarning tuzilishi bo'yicha tasnifi.

**Termik ishlov berish nazariyasi.** Termik ishlov berish turlarining tasnifi. Birinchi tur yumshatish - gomogenizatsion yumshatish. Qayta kristallanish va qayta kristallanishdan oldingi yumshatish – bo'shatish. Qayta kristallanish. Qayta kristallanishdan oldingi va qayta kristallanish bilan yumshatish jarayonida metall xossalari o'zgarishi. Qayta kristallanishdan oldingi va qayta kristallanish yumshatish usullarini tanlash. Ikkinchi turdagi yumshatish. Qattiq holatda fazali o'zgarishlar. Qattiq holatda fazali o'zgarishlarning umumiy qonuniyatlari. Fazalar o'zgarishi paytida fazalararo chegaralar strukturasi roli. Fazalarning bir jinsli va geterogen paydo bo'lishi. Fazali o'zgarishlar kinetikasi. Tez sovutish paytidagi o'zgarishlar (toblash). Polimorf o'zgarishsiz toblash. Polimorf o'zgarishsiz toblashda qizdirish va sovutish. Toblanuvchanlik chuqurligi. Polimorf o'zgarish bilan toblash.

Po‘latni qizdirish va sovutish paytidagi asosiy o‘zgarishlar. Qizdirishdagi o‘zgarishlar. Sovutish paytidagi o‘zgarishlar (austenitning parchalanishi). Perlit o‘zgarishiga legirlovchi elementlarning ta’siri. Martensitli o‘zgarish. Uglerodli po‘latlarda martensit o‘zgarishining xususiyatlari. Martensitlarning o‘zgarish mexanizmi. Martensitda toblangan qotishmalarning mikrostrukturasi va substrukturasi. Qotishmalarning martensitda toblangan paytida xossalarning o‘zgarishi. Martensit o‘zgarishiga legirlovchi elementlarning ta’siri. Beynitli o‘zgarish. Beynitli o‘zgarish mexanizmi va legirlovchi elementlarning ta’siri.

**Toblash va bo‘shatish.** Toblash va bo‘shatish atamalari haqida tushuncha. Po‘latlarni bo‘shatish paytida strukturaviy o‘zgarishlar. Uglerodli po‘latlarni bo‘shatish. Legirlovchi elementlarning ta’siri. Po‘latlarni bo‘shatish jarayonida mexanik xususiyatlarning o‘zgarishi. Ikkilamchi qattiqlashuv. Bo‘shatishdagi mo‘rtlik. Termik ishlov berish texnologiyasi asoslari. Toblash. Qizdirish haroratini, qizdirish vaqtini, toblash muhitini tanlash. Toblanuvchanlik. Toblash usullari. Yumshatish va normallashtirish. Po‘latni bo‘shatish. Sirtni toblash. Kimyoviy-termik ishlov berish. Sementatsiya, azotlash, nitrosegmentatsiya. Metallning diffuziyalanishi.

**Mashinasozlikda metallar va qotishmalar.** Legirlovchi po‘latlarning asoslari. Po‘lardagi legirlovchi elementlar. Temir va po‘latning kritik nuqtalariga, ferrit va austenitning xossalari, normalizatsiya qilish uchun qizdirilganda austenit donachalarining o‘shishiga, haddan tashqari sovutilgan austenitning o‘zgarishiga, po‘latning toblanuvchanligiga va bo‘shatishdagi o‘zgarish jarayoniga legirlovchi elementlarning ta’siri. Legirlangan po‘latlarning tarkibi, tuzilishi va qo‘llanilishi bo‘yicha tasnifi. Legirlangan po‘latlarni markalash. Uglerodli konstruksion va legirlangan po‘latlar.

**Konstruksion po‘latlarga qo‘yiladigan talablar.** Po‘latlar uchun GOST. Kam legirlangan qurilish po‘latlari. Toblanuvchanligi past bo‘lgan po‘latlar. Sementatsiyalanuvchi va azotlanuvchi po‘latlar. Prujinali uglerodli va legirlangan po‘latlar. Podshipniklar uchun po‘latlar. Austenitli yuqori marganetsli po‘lat. Grafitlangan po‘lat. Yuqori martensitlangan po‘latlar. Legirlash tamoyillari. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari martensitli o‘zgarish. Fazaviy o‘zgarishlar kinetikasiga martensit elementlarning ta’siri va termik ishlov berish xususiyatlari. Zanglamaydigan martensitli po‘latlar. Po‘latlarning qo‘llanilishi va ularning xususiyatlari. Konstruksion zanglamaydigan va korroziyabardoshli po‘latlar. Legirlashning umumiy tamoyillari. Xromli zanglamaydigan po‘latlar. Xrom-nikelli austenitli po‘latlar. Yuqori legirlangan kislotaga bardoshli po‘latlar. Issiqlikka bardoshli va okalinaga bardoshli po‘latlar. Issiqlikka bardoshli po‘latlar va qotishmalar. Issiqlikka bardoshli po‘lat va qotishmalarni qotishma tamoyillari. Mustahkamlash fazalari. Issiqlikka bardoshlilikni oshirish usullari. Perlit va martensit sinfidagi issiqlikka bardoshli po‘latlar. Karbid va intermetallid mustahkamlovchi issiqlikka bardoshli austenitik po‘latlar. Nikel asosidagi issiqlikka bardoshli qotishmalar.

**Asbobsozlik po‘latlari.** Asbobsozlik po‘latlarni tasniflash va markalash. Qizil bardoshlilik. Kesish va o‘lchash asboblari uchun po‘latlar. Tezkesar po‘latlar. Termik

ishlov berishning xususiyatlari. Issiq holda cho'zuvchi va cho'ktiruvchi qoliplar uchun po'latlar. Bosim bilan quyish va presslash qoliplari uchun po'latlar.

**Cho'yan.** Xususiyatlari va maqsadi. Tasniflashning umumiy tamoyillari. Oq va kulrang cho'yanlar. Bolg'alanuvchan cho'yan. Tugunli cho'yan. Legirlangan cho'yanlar. Cho'yanni markalash. Texnik talablar, termik berish xususiyatlari va cho'yanning xususiyatlari. Qattiq metall-keramika qotishmalari.

**Rangli metallar va qotishmalar.** Alyuminiy va uning qotishmalari. Termik ishlov berishning xususiyatlari. Alyuminiy qotishmalarining tasnifi. Deformatsiyalangan alyuminiy qotishmalari. Duralumin. Quyma alyuminiy qotishmalari. Texnologik va mexanik xususiyatlar. Siluminlar. Tayyorlangan alyuminiy qotishmalari. Alyuminiy podshipnik qotishmalari. Alyuminiy va uning qotishmalarini qo'llash doirasi.

**Magniy va uning qotishmalari.** Magniy qotishmalarining tasnifi. Deformatsiyalangan va quyma magniy qotishmalari. Magniy qotishmalarini termik ishlov berish. Magniy qotishmalarini korroziyadan himoya qilish.

**Mis va uning qotishmalari.** Qotishma tamoyillari. Zararli elementlarning misning tuzilishi va xususiyatlariga ta'siri. Mis va uning qotishmalarini qo'llash doirasi. Mis qotishmalarining tasnifi. Latunlar, ularning xususiyatlari, markalash va qo'llanilishi. Qalay, alyuminiy, qo'rg'oshin, marganets va berilliy bronzalari. Tarkibi, xususiyatlari, markalanishi va qo'llanilishi. Mis-nikel qotishmalari. Misli birikmalar.

**Titan va uning qotishmalari.** Legirlovchi elementlarning tasnifi va titan qotishmalarining turlari (alfa qotishmalari, beta qotishmalar, alfa + beta qotishmalar). Titan qotishmalarini ishlab chiqarish uchun metallurgiya texnologiyasining xususiyatlari. Titan qotishmalarining mexanik va korroziyali xususiyatlari. Titan qotishmalarining vodorod mo'rtlashishi. Konstruktion va issiqlikka bardoshli titan qotishmalari. Termik ishlov berishning xususiyatlari.

**Rux, qo'rg'oshin, qalay va ularning qotishmalari.** Qalay va qo'rg'oshin asosidagi birikmalar. Antifriksion qotishmalar. Ko'p qatlamli podshipniklar.

**O'tga bardoshli metallar va ularning qotishmalari.** Korroziyaga qarshilik. Qotishma tamoyillari. Molibden va uning qotishmalari. Volfram va uning qotishmalari. Xrom va uning qotishmalari. Tantal va uning qotishmalari. Niobiy va uning qotishmalari. Oksidlanishdan himoya qilish. O'tga bardoshli metallar va ularning qotishmalarini qo'llash sohalari.

**Maxsus fizik xususiyatlarga ega metallar va qotishmalar.** Magnit materiallar. Magnit xossalari bo'yicha tasniflash. Past chastotali va yuqori chastotali yumshoq magnit materiallar. Quyma, ishlangan va tayyorlangan qattiq magnit qotishmalar. Maxsus termik va elastik xususiyatlarga ega materiallar. Belgilangan

elastik xususiyatlarga ega qotishmalar. Past va anomal termik kengayish bilan qotishmalar. Mashinasozlikda metall bo'lmagan va kompozit materiallar.

**Polimerlar va plastmassalar.** Polimer materiallarning tasnifi. Polimerlarni ishlab chiqarish usullari. Polimer makromolekulalarining tuzilishi. Polimer kristallarining o'sishi nazariyasi. Supramolekulyar tuzilish. Polimerlarning faza va fizik holatlari. polimerlar. Polimerlarning tuzilishiga ko'ra mexanik xususiyatlari. Relaksion xususiyatlari. Eritmalarning qovushqoqligini oquvchanligi va polimer eritmaları. Polimerlarning barqarorlashishi. Polimerlarning yopishishi va ishqalanishi.

Polimerlarni buzilish turlari va nazariyasi. Buzilishga tashqi omillarning ta'siri. Polimerlarning tuzilishi va mustahkamligi. Polimerlarning fizik-mexanik, yopishqoqlik, ishqalanish, korroziyaga qarshi, dielektrik xossalari, bu xossalarni o'rganish usullari.

Termoplastik va termoreaktiv polimerlarga asoslangan plastmassalar. Qattiqlashtiruvchilar, to'ldiruvchilar, plastifikatorlar, katalizatorlar, tezlatgichlar, issiqlik va yorug'lik stabilizatorlari, pigmentlar, ingibitorlar.

Plastmassalarni mahsulotga qayta ishlash usullari: ekstruziya, bosim ostida quyish, presslash, vakuumlash. Polimer qoplamalarini ishlab chiqarish uchun materiallar, texnologiya va uskunalari. Polimerlar va plastmassalarni mashinasozlikda qo'llash.

**Amorf qotishmalar.** Shisha-keramika, keramika va boshqa noorganik materiallar. Texnik shisha va uning tuzilishi, xossalari va turlari. Mashinasozlikda ularni qo'llash sohasi. O'tga bardoshli birikmalar, asosiy turlari, tarkibi, tuzilishi, xossalari. Metallarni himoya qilish uchun emallar. Amorf qotishmalar. Texnik keramika. Olovga bardoshli va konstruktiv keramika materiallari. Keramikaning mashinasozlikda qo'llanilishi. Texnologik va konstruktiv materiallar sifatida grafit va uning modifikatsiyalari.

**Kompozit konstruktiv materiallar.** Metall va polimer matritsasidagi kompozitlar. Shisha tolali plastmassalar, yog'och tolali plastmassalar, bor plastmassalari, uglerod tolali plastmassalar, ularning xususiyatlari, ishlab chiqarish usullari va qo'llanilishi sohalari. Kuchaytirilgan va to'ldirilgan metall-polimer materiallari va mahsulotlari. Kompozit materiallarning mexanik xususiyatlari. Buzilish mexanizmi. Kompozit materiallardan tayyorlangan mahsulotlar uchun mustahkamlikni hisoblash asoslari. Kompozit materiallardan foydalanish sohalari va istiqbollari. Qatlamli materiallar. Qatlamli va tolali materiallarni loyihalash tamoyillari. Kompozit materiallarni birlashtirish usullari.

**Bo'yoqlar va yopishtiruvchi moddalar.** Bo'yoq va laklarning tasnifi. Bo'yoq va lak qoplamalarini qo'llash texnologiyasi. Yopishtiruvchi materiallar. Fizikaviy-kimyoviy tabiati. Yelimlovchi moddalarning tarkibi va tasnifi. Yopishqoq birikmalarning xossalari va ularni sinash usullari. Mashinasozlikda yopishtiruvchi birikmalarning qo'llanilishi. Kauchuk materiallar. Kauchuk materiallarning umumiy ma'lumotlari, tarkibi va tasnifi. Kauchuk materiallarni mashinasozlikda qo'llash doirasi.



**Materiallarni tadqiq qilishning zamonaviy usullari.** Faza tarkibi tuzilishini o'rganish usullari. Metallografiya. Difraksion elektron mikroskop. X-nurli spektral tahlil. Fazali rentgenografik tahlil. Yupqa struktura va qattiq eritmalar holatini rentgenografik tahlil qilish. Metall va qotishmalarning fizik xossalari va fazaviy o'zgarishlarini o'rganish usullari. Faza va strukturaviy o'zgarishlarning magnit tahlili. Termo E.M.F usuli. Materiallarni buzmaydigan tekshirish usuli. Ultratovush nuqsonlarni aniqlash. X-ray va gamma nuqsonlarini aniqlash. Magnit va defektoskop nuqsonlarni aniqlash.

**Polimerlarni o'rganish usullari.** Kimyoviy analiz, infraqizil spektroskopiya, gaz xromatografiyasi, rentgen analizi, elektron mikroskopiya. Mexanik va texnologik sinovlar usullari. Termomechanik usul. Mikrobiologik zararga bardoshlilikini aniqlash. Metall bo'lmagan materiallarning korroziya faolligini baholash.

### **Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ro'yxati.** **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
2. M.Sahoo and S.Sahu. PRINCIPLES OF METAL CASTING 3rd edition McGraw-Hill UK 2014.-763 p.
3. John Campbell. THE METALLURGIY OF CAST METALS CASTINGS. 2003.- 334 p.
4. Peter Beeley. FOUNDRY TECHNOLOGY. -Adivision of Reed Educational and Professional Publishing Ltd. 2001.-754 p.
5. Расулов С.А. Грачев В.А. Куймакорлик металлургияси. -Тошкент.: "Ўқитувчи", 2004.-250 с.
6. Расулов С.А., Тураходжаев Н.Д. Металлургияда куйиш технологияси.- Тошкент.: «Чўлпон», 2007.- 230 с
- 7 . Materialshunoslik.-M.: MVTU im. N.E.Bauman 2008 г.,
- 8 . Lakhtin Yu.M., Leontyeva V.P. Materialshunoslik - M.: Mashinasozlik, 1990 г. – 528 b.
- 9 . Solntsev Yu.P. Materialshunoslik.-M.Academy, 2008 г.
- 10 . Struk V.A., Pinchuk L.S., Myshkin N.K., Goldade V.A., Vityaz P.A. Mashinasozlik va sanoat texnologiyalarida materialshunoslik. 2010. 234 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

2. Жоҳн Сампбелл Сомплетте Састинг Ҳандбоок фирст эдитион 2011 й.

3. V.A. \_ Mirboboev, Qurilish materiallari texnologiyasi.-T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012 yil, 232 bet.

4. Truxov A.P., Mogilev I.S. Quyma qotishmalari va eritish, Moskva, Akademiya, 2004. 230 p .

5. Kats S. M. Yuqori haroratli issiqlik izolyatsion materiallar.- M.: Metallurgiya, 2008. - 232 b.

### **Elektron resurslar**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali.
3. [www.satbask.ru](http://www.satbask.ru)– научные стати i учебные материалы;
4. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
5. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)

## **Fan: QUYMAKORLIK TEXNOLOGIYALARI**

### **Fanni maqsadi, vazifalari va manbalari**

**Fanni maqsadi,** quymakorlik texnologiyasida zamonaviy texnologik jihozlardan foydalangan holda talabalarga texnik bilimlarning nazariy asoslarini, qolip uchun ishlatiladigan qolip qumi, gil, qoplovchilar va olovbardosh materiallar asosiy fizika - mexanik xususiyatlarini va qonuniyatlarini o'rgatish bo'yicha yo'nalish profiliga mos, talab qilingan bilimlar darajasini ta'minlashdir.

**Fanning vazifasi,** quymakorlik texnologiyasi, o'zak va qolip qorishmasini tayyorlashni texnologiyasi xar xil bog'lovchilarni turlari va ularni regeneratsiya qilishni xususiyatlarini xaqida asosiy tushunchalar texnologik jarayonlarni kompleks sharoitlarida jixozlarni tadqiqot qilishning konkret usullarini, har xil parametrlarni o'lchash va nazorat qilish nazariy asoslarini, texnik jihozlar holatini aniqlash va adaptatsiyalash uchun datchiklarni qo'llash masalalarini o'zlashtirishidir.

### **“QUYMAKORLIK TEXNOLOGIYALARI” FANINING MAZMUNI**

**Qo'lda qoliplash texnologiyasi.** Qoliplar turlari va ishlatilinishi. Quymakorlik moslamalari. Moslamalarning turlari. Modellar va o'zak qutilarini tasniflanishi. Opokalar. Model plitalari. Yog'ochdan yasalgan modellar. O'zaklarni ishlab chiqarish texnologiyalari. O'zaklarni tayyorlashning texnologik jarayonning klassifikatsiyasi. O'zak aralashmalarini o'zak qutilariga zichlashtirish. Quymakorlikda o'zak tayyorlashning zamonaviy usullari. O'zaklarni mashinalarda tayyorlab olish texnologiyalari.

**Dastlabki qolip materiallari.** Qolip qumlari va qumlarning mineralogik tarkibi. Kvars qumlarining klassifikatsiyalari. Yuqori olovbardosh qolip materiallari. O'zbekiston qolip qumlari. Qoliplarni bog'lovchi materiallari. Bog'lovchi materiallarga qo'yiladigan talablar. Bog'lovchi materiallarning tasnifi. Organik bog'lovchi materiallar. Noorganik bog'lovchi materiallar. Suyuq shishalar. Sement markalari. Bog'lovchi materiallarni tanlash. Sintetik smolalar. Fenofuran smolalari. Qolip aralashmalarining tasnifi. Qolip aralashmalarini ishlab chiqarish metodologiyasi. Quymalarni tayyorlab olish jarayonini kibernetik modeli.

**Mashinada qoliplash texnologiyasi.** Silkituvchi mashinalari. Qum irg'itish usulida qoliplash impuls mashinalari. Vakuum mashinalarida qoliplash. Maxsus mashinalar. Qum otuvchi mashinalarni ishlatilinishi. O'zaklarni tayyorlash texnologiyasi. O'zaklarni turlari. Yordamchi o'zaklar. Yig'ma o'zaklar. Xajmli o'zaklar. yengil o'zaklar. Qobiqli o'zaklar.

**Qolipga suyuq metalni quyish.** Quyish tizimi turlari. Quyish tizimini xisoblash turlari. Ustamalar, sovitgichlar tirgovichlarni qo'llanilishi va ularni ishlatilinishi.

Quymalarni qolipda sovitish qolipdan urib chiqarish bosqichlari. Quymakorlik nuqsonlari. Nuqsonlarni bartaraf etish va ularni kamaytirish yo'llari.

**Quymalarning aniqligini shakllantirish.** O'lchovlarining aniqligi. Quymalarning aniqligiga ta'sir etuvchi omillarning taxlili. Qolipni va elementlar joylashishining aniqligi. Quymaning yuzasining notekisligi quymalarning g'adirbudurligi. Quymalarning massasining aniqligi. Quymalarning aniqligini oshirish usullari. Aniq quymalar olish

**Metallarning ba'zi xossalari.** Metallarning suyuqlanish darajasi. Quymakorlik cho'yanlari va ularning turlari. Mexanik xossalari. Ishlatilinishi, markalanishi. Quymakorlik po'latlari, ishlatilinishi, turlari va markalanishi.

**Rangli qotishmalar.** Mis qotishmalari. Alyuminiy qotishmalari. Magniy qotishmalari. Rux qotishmalari. Titan, nikel kobalt qotishmalari. Qotishmalarining quymakorlik xossalari. Kirishish, ichki kuchlanishlar likvatsion jarayonlar. Gazlar va gazga bog'liq nuqsonlar.

**Quymakorlik texnologiyalari.** Qotishmalarni eritish usullari. Quymakorlik zavodlarida ishlatiladigan pechlar. Eritish agregatlarining konstruksiyasini takomillashtirish. Quyma ishlab chiqarishda resurslarni tejash. Quyma ishlab chiqarishda energiya tejash.

**Metall va qotishmalarining xossalarini oshirish usullari.** Eritmani pechda va pechdan tashqari qayta ishlash. Gaz va nometall bo'lgan qo'shimchalardan tozalash usullari. Quyma ishlab chiqarishda ekologik muammolarni hal qilish. Chiqindilarni (shlaklarni) qayta ishlash va metall oksidlarini tiklash jarayonlari. Pechlar uchun olovbardosh materiallar.

**Mashinasozlikda materiallardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi va mahsulotlarning bardoshlilikini oshirish usullari.** Ishlayotgan qismlarning bardoshlilikini hisobga olgan holda muhandislik materiallaridan foydalanish samarasini, ishlab chiqarish texnologiyasini hisoblash metodikasi. Po'latlar, cho'yanlar, qotishma po'latlar va qotishmalar, rangli metallar va qotishmalar, metall bo'lmagan materiallarning narxi bo'yicha qiyosiy ma'lumotlar. Termik va fizik-termik ishlov berishning turli operatsiyalari narxi. Yangi materiallar va texnologiyalar orqali mashinasozlikda konstruksiyalarning ishonchlilik va mustahkamligini oshirish, shuningdek, normativ-texnik hujjatlarda ularga qo'yiladigan texnik talablarni takomillashtirish. Uglerodli va qotishma po'latlarni, rangli metallarni va metall bo'lmagan materiallarni qo'llashning oqilona sohalari.

## **Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ro‘yxati.** **Asosiy adabiyotlar**

1. M.Sahoo and S.Sahu. PRINCIPLES OF METAL CASTING 3rd edition McGraw-Hill UK 2014.-763 r.
2. Peter Beeley. FOUNDRY TECHNOLOGY. -Adivision of Reed Educational and Professional Publishing Ltd. 2001.-754 p.
3. Rasulov S.A. Grachev V.A. Quymakorlik metallurgiyasi. -Toshkent., “O‘qituvchi”, 2004.-250 c.
4. Rasulov S.A., Turaxodjaev N.D. Metallurgiyada quyish texnologiyasi.- Toshkent., “Cho‘lpon” , 2007.- 230 c
5. Rasulov S.A. Quyma mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 160b.
6. Чернышов Б.А. Технологи литейного производства.Учебник. под.ред. Чернышов Б.А., Евеснико А.А. М.: Машиностроение, 2012.- 383с Rasulov S.A. Quyma mahsulotlarini loyihalash va ishlab chiqarish texnologiyaldri. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent., «Fan va texnologiya», 2019.-160 b.
7. Атажанов Г.Л., Халимжонов Т.С. Технология литья.- Учебное пособия. Т.: «Fan va texnologiya», 2019.-440 c.
8. Технология литейного производства: учебник / Ю. И. Категоренко [и др.]; под ред. Ю. И. Категоренко, В. М. Миляева. 2-е изд., перераб. и доп. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2018.- 684 с.
9. Saidxodjayeva Sh.N. Quymakorlik texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –Т.: “Fan va texnologiyalar”, 2020.- 230b.
10. Rasulov S.A. Grachov V.A. Quymakorlik qotishmalarini suyuqlantirish va pechdan tashqari ishlov berish. “Fan va texnologiyalar”, 2021.- 220b.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

